

Qushlar		
Sutemizuvchilar		



### O‘z fikringizni bildiring.

Organik olam taraqqiyotida ayirish va jinsiy a’zolarning evolutsiyasiga nimalar turki bo‘lgan deb o‘ylaysiz?



### 5-laboratoriya mashg‘uloti.

**Mavzu:** Umurtqali hayvonlar misolida aromorfoz, idioadaptatsiyalarni o‘rganish.

**Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:** evolutsianing turli yo‘nalishlarini o‘rganish asosida hayvonot dunyosidagi aromorfoz, idioadaptatsiyalarni hamda ularning ahamiyatini aniqlash.

**Laboratoriya jihozlari:** baliq, suvda hamda quruqlikda yashovchi hayvonlarning ho‘l preparatlari, sudralib yuruvchi, qush, sutemizuvchi hayvonlarning mulyajlari.

#### Ishning borishi:

1. Baliqlar, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilarning tuzilishini o‘rganing. Ulardagi aromorfoz va idioadaptatsiyalarni aniqlang.

2. Kuzatish natijalari asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Hayvon tiplari	Aromorfozlar
Baliqlar	
Suvda hamda quruqlikda yashovchilar	
Sudralib yuruvchilar	
Qushlar	
Sutemizuvchilar	

3. Har bir tipga mansub biron-bir hayvon turi misolida idioadaptatsiyalarni aniqlang.

Hayvon turlari	Idioadaptatsiyalar
Elektr skat	
Yashil qurbaqa	
O‘rta Osiyo toshbaqasi	
Oq laylak	
Ko‘k kit	

4. Bajarilgan ish yuzasidan xulosa chiqaring.